



MINTAQADA INDUSTRIAL-IQTISODIY ZONALAR SHAKILLANISHI

Uralov Eliboy Omonovich

*Toshkent iqtisodiyot universiteti Mintaqaviy iqtisodiyot
Kaferdasi PhD.professor v.b.*

Maxtimova Zarafshon

*Toshkent iqtisodiyot universiteti Mintaqaviy iqtisodiyot
Kaferdasi katta o'qituvchi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintqa industrial-iqtisodiy zonalar shakillanishi, rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning joriy holati va undan samarali foydalanish imkoniyatlari chuqur o'rganildi. Maqola natijalari erkin iqtisodiy zonalarini sanoatni hududiy rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda, iqtisodiy rejalashtirish va investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, hududiy rivojlanish, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish resurslari, iqtisodiy islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, tarkibiy tuzilma, sanoat siyosati, statistik tahlil.

Аннотация: В статье глубоко изучено современное состояние использования производственного потенциала при формировании и развитии промышленно-экономических зон региона, а также возможности его эффективного использования. Результаты статьи имеют большое значения при совершенствовании стратегии регионального промышленного развития свободных экономических зон, при формировании экономического планирования и инвестиционной политики.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, территориальное развитие, промышленный потенциал, производственные ресурсы, экономические реформы, макроэкономическая стабильность, ВВП, структура, промышленная политика, статистический анализ.

Annotation: This article deeply studies the current state of use of production potential in the formation and development of industrial and economic zones in the region, as well as the possibilities of its effective use. The results of the article are of great importance in improving the strategy of regional industrial development of free economic zones, in the formation of economic planning and investment policy.

Keywords: free economic zone, territorial development, industrial potential, production resources, economic reforms, macroeconomic stability, gross domestic product, structural structure, industrial policy, statistical analysis.



KIRISH — davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar. ko‘p hollarda davlatlararo tutash hududlarda xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo‘llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

Erkin iqtisodiy zonalarz.da alohida xalqaro huquqiy status joriy etiladi. Lekin u qayerda joylashishidan qat’i nazar, shu mamlakatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar yer ajratish, firma va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, boj to‘lovlari, soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to‘lov vositasini o‘tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajariladi. Erkin iqtisodiy zonalarzni tashkil etishdan maqsad ko‘plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir.

TAHLIL-Erkin iqtisodiy zonalarzni hozirgi zamon iqtisodiy integratsiya jarayonlarining mahsuli, deb qarash unchalik to‘g‘ri emas. Uning tarixi juda ko‘hna. Erkin iqtisodiy zonalar, tarixi uzoqqa borib taqaladi. qadimiy finikiyaliklar, yunonlar va rimliklar savdo ishlarini rivojlantirish maqsadida chet el savdo kemalarining o‘z portlariga erkin kirib chiqishini va ularning xavfsizligini ta’minlaganlar. XVI va XVII-asrlarda Yevropaning qator shaharlari o‘zlarini „Erkin savdo shaharlari“ deb e’lon qilganlar. Buyuk [Amir Temur](#) davrida Samarqand ana shunday erkin savdo markazi bo‘lgan, mamlakatning barcha karvon yo‘llari hokimiyat himoyasiga olingan.

Erkin iqtisodiy zonalarining har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxonalar zonalarini, ilmiy texnika zonalarini. Ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar asosan, eksportga ixtisoslashgan ham mavjud. Dastlabki Erkin iqtisodiy zonalarlardan biri Irlandiyada „Shennon“ aeroportida (1959) tashkil etilgan edi. Keyinroq shunday zona Angliyadagi „DogAylend“ aeroportida paydo bo‘ldi. Ba’zi Erkin iqtisodiy zonalarz, lar ancha yirik hududlarda tashkil etiladi. Mas, Braziliyadagi Manaus, Xitoydagi maxsus iqtisodiy hudud „Shenjen“ va boshqalar shunday zonalaridir. Jahon amaliyotida Erkin iqtisodiy zonalarz.lar rivojlangan Buyuk Britaniya, Germaniya, [Niderlandiya](#), AQSH va boshqalar, shuningdek, rivojlanayotgan Braziliya, Koreya Respublikasi, Malayziya va boshqalar mamlakatlarida ham tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalarz.ga chet el kapitalini jalb qilish Xitoy siyosatida ancha keng qo‘llandi. XX-asr oxirlarida Erkin iqtisodiy zonalar. Birlashgan Arab amirliklari, Rossiya va Polshada tashkil etildi. Rossiya va Xitoy hamkorligida tashkil etilgan Blyagovanichensk — Xeyxe, Qora dengiz bo‘yi, Kaliningrad viloyatidagi „Yantar“ Erkin iqtisodiy zonalarini ham shunday makonlardir. Hozir jahonda 600 dan ortiq Erkin iqtisodiy zonalarz. mavjud.





O'zbekistonda Erkin iqtisodiy zonalar g'oyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996-yilning 25-aprelda mamlakat parlamenti O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohaslarining rivojlanishi, aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me'yoriy huquqiy asos yaratdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimiz tabiiy resurslarga, xususan, yer osti qazilma boyliklariga, turli xil qurilish materiallari uchun zarur bo'lgan xomashyolarga, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu omillar O'zbekistonning sanoat salohiyatini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Aynan shu resurslar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish orqali hududlarda iqtisodiy faollikni ta'minlash mumkin.

Смородинская Н. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama o'rganish XX asrning 70 yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, mamuriy hujjatlarda, amaliyotda, erkin iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qo'llaniladi: "Erkin iqtisodiy hudud", "Texnologik hudud", "Erkin bojxona hududi", "Maxsus iqtisodiy hudud", "Erkin tadbirkorlik hududi", "Erkin eksport hududi", "Erkin savdo hududi", "Bojsiz hudud", "Qo'shma tadbirkorlik hududi". XX asrning 80 yillarida erkin iqtisodiy hududlarning 20 ta o'tgan asrning 90 yillarida 30 ta³ shakli bor deb hisoblaganlar. Ba'zi hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda EIHlarni tavsiflovchi 40 dan ortiq atamalar borligi ham keltirib o'tilgan. [1]

Зименков Р.И. Erkin iqtisodiy hududni hududiy xo'jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi, va mana shu vaqtning o'zida o'z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi. Amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renalar fikricha, "erkin iqtisodiy hudud – bu iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi insoniyatning eng qadimgi va va shu bilan birga eng zamonaviy g'oyalaridan biridir".[2]

Rus olimi I.P.Fominskiy rahbarligi ostida chiqqan o'quv qo'llanmada⁵ erkin iqtisodiy hududlarga ushbu mamlakatda qabul qilingan umumiy xo'jalik faoliyati tartibiga nisbatan imtiyozlar beruvchi ma'lum bir hudud deb ta'riflanadi. [3].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sanoat sohasining o'sish sur'atlarining YaIMga nisbatan ustun bo'lishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotgan sanoat bazasiga ega ekanligini bildiradi. Bu holat uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy taraqqiyotning tayanadigan kuchi aynan sanoat sohasi bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi. Shu sababli, sanoatdagi ijobiy dinamikani saqlab qolish va yanada rivojlantirish uchun ilmiy yondashuv,





innovatsiyalar, investitsiya jalb qilish va hududiy ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Смородинская Н. Свободно-экономические зоны (Мировые опыты). Вест.ДВО РАН, 1993., № 4,5-С3-22
- 2.Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос.-М.: Юнити, 2005. С.5.
- 3.Фоминский И.П.Иностранные инвестиции в России: современное состояние и перспективы.-М.: Международное отношение , 1995.-С 234.